

**XALQ DEPUTATLARI
ELLIKQAL'A TUMANI
KENGASHI
QARORI**



**XALÍQ DEPUTATLARÍ
ELLIKQALA RAYONLÍQ
KEÑESINIŇ
SHESHIMI**

2023 - yil 6 - sentabr

VI-61-103-13-194-K/23

Ellikqal'a tuman hokimligi

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Prezidiumining 2023-yil 21-avgustagi 1311-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining 2023-yil 2-choragida belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi va ularning sarflanishi yo'nalishi to'g'risida tuman hokimi birinchi o'rinbosari B.Alimovning taklifini muhokama qilish

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Prezidiumining "Qoraqalpog'iston Respublikasi shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining 2023-yil 2-choragiga belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi va ularning sarflanishi yo'nalishi to'g'risida"gi 2023-yil 21-avgust kungi 1311-sonli qaroriga asosan tuman hokimi birinchi o'rinbosari B.Alimovning 2023-yil 21-avgust kungi 02-345/1-sonli xati bilan kiritgan taklifini tinglab muhokama qilib O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 119-126-moddasiga, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Ellikqal'a tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Prezidiumining "Qoraqalpog'iston Respublikasi shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining 2023-yil 2-choragiga belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi va ularning sarflanishi yo'nalishi to'g'risida"gi 2023-yil 21-avgust kungi 1311-sonli qarori ijro uchun boshchilikga olinsin.

2. Ellikqal'a tumani mahalliy budjetining 2023-yil 2-choragi daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi 2 mlrd 306,7 mln so'm miqdorida belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Prezidiumining "Qoraqalpog'iston Respublikasi shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining 2023-yil 2-choragiga belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi va ularning sarflanishi yo'nalishi to'g'risida"gi 2023-yil 21-avgust kungi 1311-sonli qarori bilan

tuman mahalliy budjetining daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi 2 mlrd 306,7 mln so‘mni, yer uchastkalariga bo‘lgan huquqni sotishdan tushgan tushum 89,0 mln so‘mni tashkil qilib, tuman mahalliy budjetining daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi xisobidan 2 mlrd 217,8 mln so‘m quyidagi yo‘nalishlarga taqsimlangan.

Shundan:

- “Ayollar daftari” jamg‘armasiga (15%) -333,0 mln.so‘m;
- “Yoshlar daftari” jamg‘armasiga (15%) - 333,0 mln.so‘m;
- “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga (30%)- 665,0 mln.so‘m;
- “Bolalarni sog‘lomlashtirish va fuqarolar salomatligini tiklashga ko‘maklashish jamg‘armasi”ga (10%) – 222,0 mln.so‘m;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Prezidiumining 2022-yil 07-aprel kungi 673-sonli qaroriga asosan Obodonlashtirish boshqarmasiga maxsus texnikalar va mexanizmlarni sotib olish uchun olingan budjet ssudasini qaytarishga 664,8 mln so‘m mablag‘lar ajratilganligi tasdiqlansin va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman hokmining birinchi o‘rinbosari B.Alimov hamda tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i M.Turabayevlarga ushbu budjet mablag‘laridan belgilangan tartibda maqsadli foydalanilishini ta‘minlash vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.K.Alimov va Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarini amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi S.Alimov zimmasiga yuklatilsin.

6. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari T.Nurimovaga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish va ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilish vazifasi yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



S.Avezov